

AGROSANOATNI KLASSTER ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Sultonov Sirojiddin Normurolovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0008-3433-6107

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishini kuchaytirish yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan agrosanoat tarmog‘ida klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha mavjud o‘ziga xos tajribalarga ega xorijiy davlatlar ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, bosqichlari va yo‘nalishlari, agroklasterlarni rivojlantirish hamda ularga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Bundan tashqari, aholini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, ishlab chiqarish korxonalarini yanada ko‘paytirish, bu esa o‘z navbatida mamlakatning eng muhim tarmoqlarini o‘sishi va daromadlarning oshishiga olib kelishi masalalari o‘rganilgan. Klaster yondashuvi hududiy aglomeratsiya va tarmoqning ijobiy sinergetik ta’sirini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion, raqobatbardosh, kooperatsiya, konsentratsiyalash modeli, klaster, eksport, agrosanoat, agroklaster.

Annotation

This article examines foreign countries with unique experiences in developing clusters in the agro-industrial sector, which is one of the directions for enhancing the socio-economic and innovative development of the country's regions. Additionally, the article analyzes the study of foreign experiences, their stages and directions, the development of agroclusters, and the factors influencing them. Furthermore, it explores issues such as fostering economic and social development of the population, increasing the number of production enterprises, which, in turn, leads to the growth of the country's key industries and an increase in income. The cluster approach has been formed considering the positive synergistic effects of regional agglomeration and network structures.

Keywords: innovative, competitive, cooperation, concentration model, cluster, export, agro-industry, agrocluster.

Аннотация

В данной статье рассмотрены зарубежные страны, имеющие уникальный опыт развития кластеров в агропромышленном секторе, что является одним из направлений усиления социально-экономического и инновационного развития регионов страны. Также проведен анализ опыта зарубежных стран, их этапов и направлений, развития агрокластеров и факторов, влияющих на них. Кроме того, изучены вопросы экономического и социального развития населения, увеличения числа производственных предприятий, что, в свою очередь,

способствует росту ключевых отраслей страны и увеличению доходов. Кластерный подход формируется с учетом положительных синергетических эффектов региональной агломерации и сетевой структуры.

Ключевые слова: инновационный, конкурентоспособный, кооперация, модель концентрации, кластер, экспорт, агропромышленный сектор, агрокластер.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha tarmoqlar kabi, qishloq xo‘jaligida ham tarkibiy islohotlarning yangicha bosqichida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda jadal rivojlanayotgan dunyo miqyosida agrar soha muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalanish orqali, birinchidan, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlanishi hamda unumdor, serhosil yerlardan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi [1]. Ikkinchidan, aholining bandligini ta‘minlash masalasi nazarda tutiladi. Bu esa iqtisodiyotda cheklangan resurslardan samarali foydalanish va cheksiz ehtiyojlarni qondirish nazariyasiga asoslanadi.

Agrosanoat klasterida mahsulot yetishtirishdan tortib, uni tayyor mahsulot sifatida yaratishgacha bo‘lgan jarayon va unga sarflangan mehnat hamda moddiy xarajatlar mashaqqatli ekani sir emas. Bu jarayon, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligining zamonaviy usuli — klaster tizimlari bilan chambarchas bog‘liqdir [2].

Agroklasterning bugungi kundagi iqtisodiy ahamiyati, rivojlantirish tamoyillari, iqtisodiy mohiyati, bosqichlari, shart-sharoitlari va samaradorligini chuqur tahlil qilishga doir nazariyalarni o‘rganish hamda uni yanada takomillashtirish, agroklasterni sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va tahlil natijalarini kuzatish dolzarb masalalardandir.

Agroklasterni sohasining keng tarmoqliligini hisobga olib, yetishtirilgan mahsulotlardan mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, tashish va joylashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi global iqtisodiy tendensiyalar va jahon jamiyati rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari mamlakat hududlarida ijtimoiy rivojlanish barqarorligini ta‘minlashning strategik istiqbolini ko‘rsatib turibdi. Iqtisodiy klasterlash masalalari turli xorijiy va mahalliy mutaxassislar tomonidan ko‘p yillar davomida tadqiq etilgan, ammo bu kontseptsiyada hali ham o‘rganilmagan muammolar mavjud. (Kuznetsova N.V., 2016) [3].

G. Bekattinining “sanoat rayonlari” nazariyasi va A. Marshallning sanoat aglomeratsiyasi haqidagi nazariyalari iqtisodiyotning klasterlashuvi, kompaniyaning iqtisodiy samaradorligi uning fazoviy joylashuviga bog‘liqligi kabi masalalarni tahlil qiladi. Bundan tashqari, bu nazariyalar ishlab chiqarish joylashuvi bo‘yicha A. Lesch, J. Thunen, V. Launhardt kabi olimlarning iqtisodiy aglomeratsiya omilini o‘rganish

bo'yicha ishlari bilan bog'liq. Mazkur nazariyalar iqtisodiy klasterlash kontseptsiyasini ishlab chiqishga hissa qo'shgan (Kuznetsova N.V., 2016) [3].

Zamonaviy klaster nazariyasi 20-asr oxirida shakllanib, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida klasterlarni asosiy omil deb hisoblagan tadqiqotlarga asoslangan. M. Porter (1998) fikricha, klasterlar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikka ta'sir qiladi. Ularning tadqiqotlari klasterlar joylashuv haqidagi fikrlashning yangi uslubini ifodalaydi va an'anaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyalarini qayta ko'rib chiqishga undaydi [4].

"Agrosanoat klasteri" ta'rifi o'ziga xos elementlarni o'z ichiga oladi: tarmoqlararo xususiyat, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik, ekologik tozalik va noyob raqobatbardosh ustunliklar. "Klaster"ning asosiy xususiyatlari — ishtirokchilarning geografik konsentratsiyasi, bir-birini to'ldirishi, ixtiyoriy ishtirok, norasmiy munosabatlar va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik — Настин А.А. (2011) tomonidan ta'riflangan [5].

Sanoat klasterlari rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya iqtisodiyotiga asoslangan yangi paradigmaning asosiy qismiga aylangan. AQSh va Yevropa mamlakatlari agro-oziq-ovqat klasterlarining kuchli bazasini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Lotin Amerikasi va Osiyo mintaqasida agro klasterlar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida ko'rilmogda. Xitoyning agro-oziq-ovqat mahsulotlarini rivojlantirish salohiyati juda yuqori bo'lib, bu borada sabzavot va gul yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar yaxshi misol bo'lib xizmat qiladi (Настин А.А., 2011) [6].

Agrosanoatni klaster asosida optimallashtirish masalasiga oid o'zbek olimlarining bir qator ishlari mavjud. Jumladan:

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini econometrik modellashtirish zarurati haqida (Jo'rayev F.D., Aralov G'.M., 2023) [7];

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qisqa muddatli prognozlash bo'yicha nazariyalar (Jo'rayev F.D., 2021) [8].

Xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish jarayonlari va ularga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirish bo'yicha Qashqadaryo viloyati misolida multiplikator modellar asosida prognozlar berilgan va takliflar ishlab chiqilgan (Rakhimov A.N., Makhmatkulov G.K., Rakhimov A.M., 2021) [19].

METODOLOGIYA

Agrosanoat sohasini rivojlantirish masalalari, klasterlar tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ularni yanada rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi o'rganildi. Tadqiqot davomida mavhum fikrlash, qiyosiy tahlil, guruhlash, kuzatish, induksiya kabi usullardan keng foydalanildi. Tadqiqotning maqsadi — klaster faoliyatini keng targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilash va samarali takliflar ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot hisob-kitoblariga ko'ra, rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga asoslangan. Masalan, Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlash kelajakda iqtisodiy samaradorlikni oshirish va davlatda raqobat muhitida ilg'or tarmoqlardan oqilona foydalanishning samarali yo'li hisoblanadi. Ushbu mexanizm turli muhitlarga moslashuvchan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni izchil va samarali hal qilishga yordam beradi.

Klasterlash nafaqat alohida davlatlarning, balki xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish va mustahkamlash bilan birga ularning nufuzini ham yuksaltiradi. Bugungi kunda innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida ushbu tizim ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyasini chuqurlashtirish hamda yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim tajriba sifatida xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ortiq klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi band qilingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya va Shvetsiya sanoatlarida klaster usuli to'liq tatbiq etilgan. AQShda esa mavjud korxonalarning yarmidan ziyodi ushbu tizimda faoliyat yuritib, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlar mamlakat yalpi ichki mahsulotining 60 foizini tashkil qiladi.

Shu bilan birga, jahon tajribasida klasterlarning shakllanish maqsadiga ko'ra oltita modeli mavjud:

➤ Italiya modeli – kichik firmalarning katta assotsiatsiyalar bilan raqobatbardoshligini oshirish uchun o'zaro birlashishi;

➤ Yaponiya modeli – ko'plab yetkazib beruvchilarning integratsiyalashganyirik yetakchi firma atrofida shakllanadigan ishlab chiqarish zanjiri. Bu model texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan;

➤ Finlyandiya modeli – yuqori texnologiyali innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni ta'lim va tadqiqot bilan integratsiya qilish, korxonalarni milliyalashtirish maqsadida biznes va institutlar birlashuvi. Bu model tabiiy resurslari ko'p bo'lmagan kichikroq mamlakatlar uchun mos keladi;

➤ Shimoliy Amerika modeli – korxonalar o'rtasidagi aniq raqobat bilan tavsiflanib, ishlab chiqarish jarayonida yaqin aloqalarni o'rnatishni nazarda tutmaydi. Bu model klasterdagi yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat tufayli, shuningdek, ommaviy ishlab chiqarish tufayli bosh kompaniya yakuniy mahsulotning past narxiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi;

➤ Hind-Xitoy modeli – bu modelda davlat asosiy rol o'ynaydi. Asosiy e'tibor chet el investitsiyalariga qaratilgan bo'lib, ular zamonaviy texnologiyalarni olibkelinishini va davlatning jahon bozorlariga chiqishini ta'minlaydi;

➤ Sobiq Ittifoq modeli – bozor munosabatlari va raqobat minimallashtirilganholda, ishlab chiqarish yirik firmalarda to'planadi. Bu model aholi zichligi past va kam rivojlangan mintaqalarning sanoatida qo'llaniladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlar faoliyatini innovatsion qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni innovatsiya maktablari, institutlar, markazlar va boshqa shu kabi muassasalar bilan y'zapo bog'liqligi ta'minlanadi. Bu esa, klasterlar

faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish, shuningdek, mamlakatning jahon bozoriga chiqishida raqobatbardoshligiga olibkeladi.

Milliy iqtisodiyotimizda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ularning ilg'or yutuqlaridan foydalanish o'ziga xos o'rin tutadi. Misol uchun, Janubiy Koreyada agroklasterni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta'kidlagan holda O'zbekiston sharoitida ham ularni inobatga olish mumkin. Jumladan:

qishloq xo'jaligiga davlatning amaliy yordami va qo'llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishda yetakchiligi;

tarixiy va milliy an'analardan foydalanib, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo'nalishlar, masalan agroturizm, mehmonxona xizmati kabilarni shakllantirish;

hududiy ixtisoslashuv, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish barqarorligini ta'minlash;

davlat – universitet – ilmiy-tadqiqot – fermer – qayta ishlash – biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o'zaro mutanosibligini ta'minlash mexanizmi;

olimlar mavqeyi va ilmiy-tadqiqot natijalarining samarali ekanligi hamda ularni qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mavqening yuqoriligi;

yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;

marketing tizimi rivojlanganligi, inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Integratsiya jarayonlarini Jahon iqtisodiyotida globallasuvi va chuqurlashuvi agrobiznesni ichki kuchli va zaif tomonlarini ham, uning bozordagi tashqi imkoniyatlari va xavf-xatarlarini ham har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Aynan ana shu imkoniyatlardan biri agrosanoat guruhini klaster modeli bo'yicha tashkil etishdir.

Klaster modeli jahon amaliyotida iqtisodiy guruhni, mintaqani, butun mamlakatni raqobatbardoshligini ko'tarish instrumenti sifatida keng qo'llaniladi. Klaster modelini asosiy belgilari:

guruhni tashqi bozordagi ulushini oshirish imkoniyatiga egaligi;

joylashgan hududda qulay sharoitlar (xomashyo, malakali personal, infrastruktura, o'quv markazlar, ilmiy muassasalar va boshqalar)ni mavjudligi;

guruhni davlat tomonidan kuchli qo'llash evaziga qatnashuvchilarning guruhda samarali ishtirok etish imkoniyatlarini kengligi va boshqalar.

Qishloq xo'jaligi sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterlari faoliyati qonun (normativ-huquqiy hujjat) bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan. Mazkur munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar asosida, jumladan sheriklik shartnomasi, qishloq xo'jaligi subyektlarining kooperatsiyaga birlashishi orqali amalga oshiriladi. Misol sifatida, Kanadada klaster deganda fermer xo'jaliklari sheriklik shartnomasi asosida (masalan, Ontariyo provinsiyasida fermerlarning 30 foizi sheriklik shartnomasi asosida faoliyat

yuritadi) yoki bir nechta fermerlardan iborat inkorporatsiyasiga yoxud yirik qishloq xo'jaligi korporatsiyalarga birlashgan holda faoliyati tushuniladi.

Fransiyada agrar korxonalar, ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish asosida Yevropa va jahon texnologiya va novatsiya bozorlariga chiqish maqsadida 1986-yili Monpelye shahrida "Agropolis" uyushmasini tuzishdi.

Angliyada 2001-yildan boshlab innovatsion agrosanoat klasteri – Stokbridj texnologik markaz yopiq gruntida dehqonchilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik sohalarida tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini o'tkazishmoqda

Ushbu markaz 70 gektar sug'oriladigan yerga, 40ta kompyuter orqali boshqariladigan 12 dan 1000 kv.metr gacha hududga teng maydonchalarda joylashgan zamonaviy issiqxonalar hamda yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan laboratoriyalarga ega.

AQShni barcha shtatlarida ilg'or texnologiyalarga ega agrosanoat klasterlari keng tarqalgan. Yirik agroklastlar Vashington, Oklaxoma, Luiziana shtatlarida, vino ishlab chiqarish Kaliforniya shtatida joylashgan. Yuqori samarada faoliyat ko'rsatayotgan klasterlarni Silikon vodiysidagi "Axborot texnologiyalar", Gollivuddagi "Kinofikatsiya" klasterlari misolida ham ko'rish mumkin. Yevropada (Germaniya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Gretsiya, Gollandiya, Angliya, Shvetsariya, Daniya va boshqa davlatlarda) yuqori texnologiyali agroklastlar keng rivoj topgan.

Daniyada qishloq xo'jaligida chorvachilik dehqonchilikka qaraganda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, dehqonchilik mahsulotlari asosan chorva uchun ozuqa sifatida ishlatiladi. Chorvachilikda sut ishlab chiqarish yo'nalishi go'sht yetishtirishga qaraganda ustunlik qiladi. Shu sababli sut mahsuloti klasterlari, masalan, mashhur "Molochnaya vertical" klasteri, keng tarqalgan va rivojlangan.

Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvisiz amalga oshar edi. Biroq, 2003-yilda hukumat klaster tashabbuslariga katta e'tibor qaratib, bu borada faol choralar ko'rishni boshladi. Ushbu tashabbuslar asosan yuqori texnologiyali sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, davlat mahalliy va boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlarning kuch va resurslarini birlashtirishni maqsad qilgan.

Avstriyada klasterlarni ixtisoslashtirishga katta ahamiyat beriladi. Bu jarayonda agrosanoat korxonalari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining o'zaro aloqalarini mustahkamlash, innovatsiya dasturlarini boshqarishdagi to'siqlarni bartaraf etish va raqobatbardosh markazlarni shakllantirishga ustuvorlik beriladi.

Chili hukumati keyingi 30 yil ichida vinochilik sohasini rivojlantirish, integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan yirik kompaniyalarni kengaytirish orqali jahon bozorida o'z ulushini oshirishga intilmoqda. Ushbu maqsadda vinochilik klasteri tashkil etilgan. Bu klaster tarkibiga o'zaro bog'liq uyushmalar, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va agentliklar, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda tarmoqning ommaviy axborot vositalari kiradi. Yevropalik taniqli investorlar o'z sarmoyalari, yangi texnologiyalari, mahsulot marketingi va eksport imkoniyatlari bilan Chili bozoriga qaytgan. Natijada, Chili vino eksporti bo'yicha jahon bozorida beshinchi o'rinni egallamoqda.

Rossiyada iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan, agrosanoat kompleksida klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha 200 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi 2008-yilda qabul qilgan "Hududiy-sanoat klasterlarini rivojlantirish Konsepsiyasi" uch blokdan iborat:

- 1) klasterlarni institutsional taraqqiyotiga yordam berish;
- 2) klasterda qatnashuvchilarni raqobatbardoshligini ko'tarish;
- 3) klasterlarni taraqqiyot etishi uchun qulay sharoitlarni yaratish.

Klasterlar Buyuk Britaniya, Gollandiya, Germaniya, AQSh, Daniya, Fransiya, Italiya, Finlandiya, Hindistonda yaxshi rivojlangan. Daniya, Finlandiya, Shvetsiya sanoatini klasterlar to'la egallagan.

Klaster tuzilmalari Shvetsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Pokiston, Xitoy va Turkiya davlatlari yengil sanoatida, Germaniyada kimyo va mashinasozlik, Fransiya oziq-ovqat va kosmetika sanoatlarida muvaffaqiyatli ishlamoqda. Klasterlarni shakllantirish jarayoni Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Singapur, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda.

Klasterlarning shakllanishi va rivojlanishida qoida bo'yicha bir-birini to'ldiradigan strategiyalardan foydalanilmoqda. Vaqti kelib klasterlarning faoliyati tashqi resurslarni, yirik kapital qo'shilmalarini va boshqaruv organlarining alohida e'tiborini jalb qilishlariga sabab bo'ladi. Klasterning markazi sifatida odatda qudratli kompaniyalar chiqadi, bunda ular orasida raqobatchilik munosabatlari saqlanib qolishi mumkin. Klaster shunisi bilan kartel yoki moliyaviy-sanoat guruhlaridan farq qiladi.

Raqobatchilar, xaridorlar va yetkazib beruvchilarni tizimli holda tashkil etish ishlab chiqarishning samarali ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuviga yordam beradi. Klaster tizimi ko'pchilik kichik korxonalarni ish bilan ta'minlash imkonini yaratadi. Klaster shaklida tashkil etish innovatsiyalarning o'ziga xos shakllari orqali jami innovatsion mahsulotni yaratishga olib keladi, chunki turli ilmiy va texnologik yangiliklarning kontsentratsiyalashuvi yangi bilim va texnologiyalarning tarqalishi va amaliyotda qo'llanilishi uchun optimal tizimni shakllantiradi. Klaster qatnashchilari o'rtasidagi barqaror aloqalar tufayli ixtirolar, yangi ishlanmalar va texnologiyalar innovatsiyaga, innovatsiyalar esa raqobatbardosh ustunliklarga aylanishi ta'minlanadi.

Shubhasiz, klasterdagi hamkorlik tobora manfaatli bo'lib boradi. Biroq, aynan shu holat klaster qatnashchilariga muayyan xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, bozorda mustaqil harakat qilish, yangi tovarlar va texnologiyalarni mustaqil o'zlashtirish qobiliyatining qisman yo'qotilishi mumkin.

Shuni inobatga olgan holda, so'nggi o'n yilliklarda qator mamlakatlarda samarali klaster strategiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu strategiyalar o'z kuch-qudratini va raqobatbardoshligini jahon bozorida isbotlagan markazlar asosida shakllantirilmoqda. Hukumatlar o'z urinishlarini mavjud klasterlarni qo'llab-quvvatlash va ilgari o'zaro aloqasi bo'lmagan kompaniyalarning yangi tarmoqlarini tashkil etishga qaratmoqda. Davlat nafaqat klasterlarning shakllanishiga yordam beradi, balki ba'zan klasterning faol ishtirokchisiga ham aylanadi.

Klaster strategiyalari Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda. Masalan:

Germaniya: 1995-yildan beri biotexnologik klasterlarni rivojlantirish bo'yicha "Bioregio" dasturi faoliyat ko'rsatmoqda.

Buyuk Britaniya: Biotexnologik firmalar Edinburg, Oksford va Janubi-sharqiy Angliyaning atrofidagi tumanlarda joylashgan.

Norvegiya: Hukumat "dengiz xo'jaligi" klasteridagi firmalar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantiradi.

Finlyandiya: O'rmon sanoati klasteri rivojlangan bo'lib, qog'oz, mebel, poligrafiya va bog'liq texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni o'z ichiga oladi. Ushbu klasterdagi korxonalar o'zaro yaqin hamkorlik qilish orqali raqobat ustunligini ta'minlaydi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, Finlyandiya tadqiqotlar va texnologiyalarni kooperatsiyalashuvi bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

Shunday qilib, yondashuvlarning turlicha bo'lishiga qaramay, Yevropa mamlakatlarining aksariyati klaster strategiyalarini ishlab chiqqan. Bu borada Daniya, Niderlandiya, Belgiyaning Flamand hududi, Kvebek (Kanada), Finlyandiya va Janubiy Afrika ilg'or mamlakatlar hisoblanadi. Fransiya va Italiyada esa bu strategiyalar boshqa nom bilan ("raqobatbardoshlik qutblari") amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda ekspertlar tomonidan klasterlarning 7 ta asosiy tavsiflari ta'riflangan bo'lib, u yoki bu strategiyani tanlash shu tavsiflarning almashinuvlariga asoslanadi:

- geografik tavsifdagi: iqtisodiy faollikning faqat mahalliy (masalan, Niderlandiyadagi bog'dorchilik klasteri)dan tortib asl global (aerokosmik) klasterlarga bo'lgan fazoviy klasterlarni bunyod etish;

- gorizontali: bir qancha tarmoqlar yoki sektorlar yirikroq klasterga kirishlarim mumkin (masalan, Niderlandiya iqtisodiyotidagi megaklasterlar tizimi);

- vertikal tavsifli: klasterlarda ishlab chiqarish jarayonlarining yondosh bosqichlari qatnashishi mumkin, bunda tarmoq ishtirokchilaridan aynan kim klaster doirasidagi innovatsiyalarning tashabbuskori va pirovard ishtirokchisi ekanligi muhimdir;

- material tavsifdagi: ko'lam samarasi hisobidan tejashni ta'minlaydigan har xil klasterga birlashadilar (masalan, multimediali klaster) va bu yangi kombinatsiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi;

- texnologik tavsifdagi: aynan bitta texnologiyadan foydalanadigan tarmoqlarning jamlanmasi (masalan, biotexnologik klasterlar);

- fokusli tavsifdagi: bitta markaz, ya'ni korxona, ITI yoki o'quv muassasasi atrofida to'plangan firmalardan tashkil topgan klasterlar;

- sifatli tavsifdagi: bu yerda nafaqat firmalarning haqiqatdan ham hamkorlik qilayotganligi, balki uni qay tarzda amalga oshirayotganligi to'g'risidagi masala ham ahamiyatlidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlarning agrar sohadagi islohotlarga asoslangan tamoyillarini O'zbekistonda tatbiq etish orqali bu islohotlarning samaradorligini oshirish mumkin. Jahon tajribasidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligini

yanada rivojlantirish va rivojlangan davlatlarda o'zini oqlagan klaster tizimida ish faoliyatini tashkil etish orqali iqtisodiy, ijtimoiy muammolar va ishsizlikni bartaraf etish uchun samarali yechimlar topilishi mumkin.

Bu jarayon O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalari kadrlariga bo'lgan talabning oshishiga, zarur mutaxassislarni tayyorlashga va innovatsiyalar rivojlanishi uchun zamin yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi korxonalar, institutlar va ilm-fan rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi.

Bugungi kunda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishda agrosanoatning o'rnini juda muhimdir. Agrosanoat klasterlash tizimi mahsulot yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotni iste'mol bosqichiga yetkazishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarda ilmiy tadqiqotchilar, yetishtiruvchilar, oraliq ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, tayyor mahsulotni qayta ishlovchilar va xizmat ko'rsatuvchilar ishtirok etadi.

Mazkur tizim tayyorlangan mahsulotning har bir bosqichida ishchi kuchining samarali taqsimotini ta'minlab, yangi imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, agrosanoatning klasterlash modeli iqtisodiyotni mustahkamlash va mamlakat rivojiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹ Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son² Farmoni.

3. Кузнецова Н.В., Н.А. "Кластеризация экономики зарубежный опыт развития и перспективы России" // Экономика науки 2016

4. Porter, M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. Available at: <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>

5. Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании. // «Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий», 2011, №4. — С. 45.

6. Galvez-Nogales, Eva. Agro-based clusters indeveloping countries: staying competitive ina globalized economy. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Rome, 2010.

7. Жўраев Ф.Д. & Аралов Ғ.М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. // Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43.

8. Жўраев Ф.Д. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш. // Инновацион технологиялар, (2 (42)), 92-95.

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

² <https://lex.uz/docs/-4567334>

9. Rakhimov A.N. & Jo'raev F.D. (2022). A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling. *resmilitaris*, 12(4), 2164-2174.

10. Juraev F.D.S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 49-54.

11. Mukhitdinov K.S. & Juraev F.D. Methods of Macroeconomic Modeling. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, e-ISSN, 2456-6470.

12. Rakhimov A.N., Makhmatkulov G.K. & Rakhimov A.M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 21-48.